

# Surxondaryoliklar Bahodir Jalolovni sharaflamoqda



## Surxondaryoliklar Bahodir Jalolovni sharaflamoqda

Bugun Termiz shahrida Tokioda bo'lib o'tgan XXXII-yozgi olimpiya o'yinlarida sportning boks turi bo'yicha oltin medalni qo'lga kiritgan Bahodir Jalolovni tantanali kutib olish va taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniylar, talaba-yoshlar va yosh sportchilar ishtirok etgan tadbirda Surxondaryo viloyati hokimi T.Bobolov mahoratli bokschimizni erishgan g'alabasi bilan muborakbod etib, unga "Shkoda" yengil avtomashinasining kalitini topshirdi.

San'atkorlar ijrosidagi kuy-qo'shiqlar yangradi. Yoshu-keksa vohaning mard o'g'loni Bahodir Jalolov bilan esdalik uchun suratlarga tushdi. Gullar tuhfa qilindi.

Ayni paytda Bahodir Jalolov kamolga yetgan olis va chekka Sariosiyo tumani aholisi yengilmas bokschi bilan uchrashib, uni faxr-iftixor bilan sharaflamoqda.